

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XAYRULLAEVA ZEBINISO TOHIROVNA

**TALABALIK DAVRIDA HAYOTIY QADRIYATLAR
SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy
(PhD) in psychological sciences**

Xayrullaeva Zebiniso Tohirovna

Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari.....3

Хайруллаева Зебинисо Тохировна

Психологические особенности формирования жизненных ценностей в студенческий период.....21

Khairullaeva Zebiniso Tokhirovna

Psychological features of the formation of life values during the student period.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XAYRULLAEVA ZEBINISO TOHIROVNA

**TALABALIK DAVRIDA HAYOTIY QADRIYATLAR
SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/P 353 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.moiti.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xalilova Nargiza Ikromaliyevna**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Kamilova Nodira G‘ayratovna**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Tuychiyeva Saodat Meliquziyevna
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hayotiy qadriyatlar inson motivatsiyasining muhim elementi bo'lib, ehtiyojlar, munosabatlar va ijtimoiy ustanovkalar bilan chambarchas bog'liq holda iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarning bog'liq, muayyan holatlar yoki vaziyatlar jozibadorligini, u yoki bu harakatlar afzalligini belgilaydi. 2025 yilda o'tkazilgan Butunrossiya sotsiologik tadqiqoti natijalariga ko'ra¹, yoshlar hayotiy qadriyatlarilari orasida oila qurish va farzand ko'rish istagi 61%, haqiqiy muhabbatni uchratish 55%, to'kin-sochin yashash va cheklovlarsiz pul sarflash imkoniyatiga ega bo'lish 51% yuqori o'ringa ega ekanligi aniqlangan. Mazkur ko'rsatkichlar talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari muammosini dolzarb ahamiyatli sifatida tadqiq etish zaruratini ko'rsatadi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida talabalik davrida hayotiy qadriyatlar, salomatlik-hayotiy qadriyat ko'rinishi sifatida, ijtimoiy guruhlarda hayotiy qadriyatlar, hayotiy mazmuni mo'ljalga olish strategiyalari, qiyin hayotiy vaziyatlar, shaxsning mazmuniy sohasidagi tasavvurlar, shaxs hayotiy strategiyasi, qadriyatli yo'nalishlar, shaxsiy qadriyatlar genezisi, kasbiy faoliyatda qadriyatlar, "muammoli" vaziyatlarda qadriyatli munosabatni anglash borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada insonning hayotiy qadriyatlar, qadriyatlar yo'nalganligi, hayotiy mazmuni mo'ljalga olish, o'quv faoliyati motivatsiyasi bilan bog'liq psixologik muammolar diagnostikasi va psixokorreksiyasini amalga oshirish, psixolog mutaxassis faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan masalalariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarida ta'lim sifatini oshirish va o'quvchi-yoshlarda yuksak bilim va iste'dodni rivojlantirish hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishiga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Yoshlar uchun ochiq va sifatli o'qitish tizimini qaror toptirish, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish»² vazifalariga asoslanib, shaxsda hayotiy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borishga qaratilgan yangicha yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» Strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son «Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha

¹ https://www.vedomosti.ru/press_releases/2025/06/27/molodyozh-rossii-glavnie-tsennosti-i-finansovie-privichki-2025-goda

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" <http://lex.uz/docs/3107036>

rivojlantirish kontsepsiyasi», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2018-yil 27-iyuldagi RF-5466-son «Yoshlar - kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol yetib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son «Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan D.N.Adilova, Sh.A.Atadjanova, X.K.Bekchanov, B.M.Botirov, R.Sh.Bozarova, N.M.Dolimova, M.D.Galdiyeva, M.T.Isakova, X.X.Jabbarov, B.Mirkomilov, D.B.Norqo‘ziyev, A.Sh.Nurmamatov, Z.N.Ortiqova, S.S.Otamurotov, O.T.Shirinov, Sh.Z.Taylanov, S.M.To‘ychiyeva va boshqalar tomonidan hayotiy qadriyatlar strategik o‘z-o‘zini anglash, milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillari, ma’naviy-ahloqiy qadriyatlar tizimi, etnomadaniyatga qadriyatli munosabat, badiiy qadriyatlarga qiziqish, qadriyatlar yo‘nalganligi, milliy qadriyatlarni shakllantirish tamoyillari, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni, milliy qadriyatlar asosida ahloqiy tarbiyalash, oiladagi mehrning umuminsoniy qadriyatlar asosida singdirish, o‘spirinlik davrida hayotiy strategiyalar, ma’naviy tasavvurlar, ijtimoiylashuvi turlari, ijtimoiy faollikni shakllanishida milliy ongning ta’siri, ma’naviy tarbiyalash, yoshlar dunyoqarashi, milliy qadriyatlar va an’analar asosida o‘zaro munosabatlarni qaror toptirish, milliy xarakter shakllanishiga qadriyatlar ta’siri kabi masalalarni ilmiy-amaliy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Mamlakatlari olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, B.G.Ananov, L.I.Ansiferova, A.G.Asmolov, V.G.Afanasev, R.A.Axmerov, A.A.Bodalev, B.S.Bratus, Ye.P.Varlamova, O.S.Vasileva, O.A.Voronin, L.S.Vigotskiy, Ye.A.Demchenko, L.S.Egorova, P.B.Kodess, D.A.Leontev, A.N.Leontev, B.Yu.Lomov, M.O.Mdivani, N.V.Myasishev, S.L.Rubinshteyn, A.E.Sozontov, S.Yu.Stepanov, N.N.Tolstix, E.Chudnovskiy va boshqalarning izlanishlarida hayotiy strategiya, hayotiy maqsad, hayotiy reja, hayotiy kelajak, hayotiy uslub, hayotiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqlikda ekanligi ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij mutaxassislaridan P.B.Baltes, E.L.Deci, A.M.Freund, M.E.Lachman, T.Casser, J.Royse, R.M.Ryan, K.M.Prenda, A.Powyell va boshqalar tomonidan hayot mazmuni, hayotiy maqsad va unga erishish yo'llari, hayotning yaxlitligi, hayotiy shart-sharoitlari muammosini keng doirada tadqiq etgan bo'lsalar-da lekin talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni shakllanishi masalalari ilmiy tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ -2017-090813120 «Ta'lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi» ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2019-2022 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlarini aniqlash orqali ularni shakllanishiga ta'sir etuvchi usullarni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talaba shaxsida hayotiy qadriyatlarni shakllanishiga xizmat qiluvchi yetakchi komponentlarini aniqlash;

talabalik davrida hayotiy qadriyatlar yo'nalganligi, hayotiy mazmuni mo'ljalga olish bilan bog'liqligini aniqlash hamda shaxsda hayotiy qadriyatlar namoyon bo'lishi va tanlanishining tarkibiy komponentlarini tahlil qilish;

talabalik davrida hayotiy qadriyatlar va o'quv motivatsiyasining o'zaro aloqadorligini asoslash;

shaxsda hayotiy qadriyatlarni rivojlantirishda kognitiv-mazmuniy, emotsional, xulq-atvor komponentlariga ustuvorlik berilishi natijasida motivatsion-refleksiv sohaga ta'sir ko'rsatishning imkoniyatlarini ochib berish.

Tadqiqot obekti sifatida talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishi jarayoni olingan bo'lib, O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti 1-kurs talabalaridan 50 nafar, 3-kurs talabalaridan 50 nafar, Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabalaridan 50 nafar, 3-kurs talabalaridan 50 nafar, Qo'qon davlat pedagogika instituti 1-kurs talabalaridan 48 nafar, 3-kurs talabalaridan 50 nafar, jami 298 nafar talabalar tadqiqot respondentlari sifatida jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, G.V. Rezapkinaning «Hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi» metodikasi, S.S.Bubanovanning «Shaxs qadriyatli orientatsiyasini real tuzilishini tashxis qilish» metodikasi, A.A.Rean va V.A.Yakunin, N.S.Badmaevalarning «Talabalarining o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish» metodikasi, D.A.Leontevning «Shaxs hayotiy mazmunini mo'ljalga olish» metodikasi, mualliflik asosida «Talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni o'rganishga qaratilgan so'rovnomasi»dan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsion koeffisienti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining hayotiy qadriyatlarini shakllanishida yaqin insonlari bilan vaqtni yoqimli o'tkazish istagi, «olam-tabiati-inson» munosabatlaridagi o'zgarishlarga sezgirlikning yuqoriligi tufayli ijtimoiy mavqeni tasdiqlashga intilishning kuchliligiga

asoslanib oila, karyera, dam olish bilan bog'liq barqaror qarashlarning ustuvor xarakterga ega ekanligi aniqlangan;

talabalarda hayotiy qadriyatlarni shakllanishiga hayot mazmunini mo'ljalga olishning ta'siri natijasida shaxsning o'z salomatligiga ongli yondashuvi, oila-karyera munosabatlarini moddiy ta'minlanganlikka intilish, ijodiy fikrlash bilan uyg'un namoyon bo'lishiga asoslanib "hayotiy maqsad" va «Menni nazorat qilish» bilan bog'liq xususiyatlarning ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan;

talabalarning o'quv motivatsiyasi shaxsdagi o'z imkoniyatlarini ijodiy namoyon qilish hamda kasbiy bilimlarni egallashga intilish ehtiyojlarini aqliy va jismoniy salomatlik, moddiy ta'minlanganlik, karyeraga oid qarashlarda uyg'un namoyon bo'lishiga asoslanib, hayotiy qadriyatlarni shakllanishiga identiv kechishi isbotlangan;

talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun motivatsion-ehtiyojli, ijtimoiy munosabat, ustanovka, kasbiy va shaxsiy yo'nalganlikni kuchaytirishga asoslanib axloqiy-ijtimoiy qadriyatlar tizimiga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

shaxsda hayotiy qadriyatlar tarkibiy komponentlarining o'zaro aloqadorligi va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarni aniqlashtirish asosida talabalik davrida hayotiy qadriyatlar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilib, aprobatsiya qilingan;

talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni rivojlantirish bo'yicha pedagog, psixolog va ota-onalarga amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotda joriy etilgan;

hayotiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatishga xizmat qiluvchi usullar va amaliy materiallar dastur taqdim etilgan va amaliyotga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanish obektlarining maqsadga mos tanlanganligi, respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, foydalanilgan metodikalarning validligi, qo'lga kiritilgan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, bunda zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo'llanilgani, izlanishlar aniq va rejaviy bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shaxsda hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi, qadriyatlar yo'nalganligi, o'quv motivatsiyasini hayotiy qadriyatlar bilan aloqadorligini asoslanilishi hamda talabalik davrida qadriyatlar tizimini hayotiy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik mexanizmlarining mazmun-mohiyatini ochib berilganligi hamda olingan natijalar «Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya» fanini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan tajribaviy-empirik ma'lumotlardan shaxsda hayotiy qadriyat jarayoni samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi, olingan natijalar va ilgari surilgan g'oyalar hayotiy qadriyat tizimiga taalluqli konseptual nazariyasining shakllanishiga xizmat qilishi, nazariy umumlashma va tahlillarda hayotiy qadriyatni tekshirishga mo'ljallangan metodikalardan foydalanishda, talabalik davrida korreksion-rivojlantiruvchi yo'nalishni aniqlashtirishda, «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya», «Umumiy psixologiya», «Psixologik trening asoslari», «Psixologik xizmat» fanlari

bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlariga oid muammoni tadqiq etish natijasida:

talabalarning hayotiy qadriyatlarini shakllanishida yaqin insonlari bilan vaqtni yoqimli o'tkazish istagi, «olam-tabiati-inson» munosabatlaridagi o'zgarishlarga sezgirlikning yuqoriligi tufayli ijtimoiy mavqeni tasdiqlashga intilishning kuchliligiga asoslanib oila, karyera, dam olish bilan bog'liq barqaror qarashlarning ustuvor harakterga ega ekanligi aniqlangan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-328-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differentsial psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2025-yil 07-apreldagi PM-328-a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni qadriyatlar yo'nalganligi bilan o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'lishi asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan;

talabalarda hayotiy qadriyatlarni shakllanishiga hayot mazmunini mo'ljalga olishning ta'siri natijasida shaxsning o'z salomatligiga ongli yondashuvi, oila-karyera munosabatlarini moddiy ta'minlanganlikka intilish, ijodiy fikrlash bilan uyg'un namoyon bo'lishiga asoslanib «hayotiy maqsad» va «Menni nazorat qilish» bilan bog'liq xususiyatlarning ustuvor harakterga ega ekanligi dalillangan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-328-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differentsial psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2025- yil 07-apreldagi PM-328-a-son ma'lumotnomasi). Natijada shaxsda hayotiy qadriyatlarni shakllanishi va rivojlanishida yetakchi komponentlarini aniqlash va ularga samarali ta'sir qilishiga sharoit yaratilgan;

talabalarning o'quv motivatsiyasi shaxsdagi o'z imkoniyatlarini ijodiy namoyon qilish hamda kasbiy bilimlarni egallashga intilish ehtiyojlarini aqliy va jismoniy salomatlik, moddiy ta'minlanganlik, karyeraga oid qarashlarda uyg'un namoyon bo'lishiga asoslanib, hayotiy qadriyatlarni shakllanishiga identiv kechishi isbotlangan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-328-son buyrug'i bilan «Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2025- yil 07-apreldagi PM-328-a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni o'quv motivlarini yoshga bog'liq namoyon bo'lish imkoniyatlari tahlil qilingan;

talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun motivasion-ehtiyojli, ijtimoiy munosabat, ustanovka, kasbiy va shaxsiy yo'nalganlikni kuchaytirishga asoslanib axloqiy-ijtimoiy qadriyatlar tizimiga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligi isbotlangan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-328-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differentsial psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2025- yil 07-apreldagi PM-328-a-son ma'lumotnomasi). Natijada

talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni yoshga bog'liq rivojlanishning psixologik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari respublika miqyosidagi 2 ta va xalqaro darajada 2 ta ilmiy konferentsiyalarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot ishining asosiy natijalari bo'yicha 8 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, dissertatsion tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Shaxsda hayotiy qadriyatlar shakllanganligi psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida**» deb nomlanib, unda psixologiya fanida "qadriyat" va "qadriyatlar yo'nalganligi" tushunchalarining mazmuni, xorij psixologlari tadqiqotlarida hayotiy qadriyatlar muammosini tadqiq etilishi, mamlakatimiz psixologlari tadqiqotlarida muammoning ilmiy-nazariy tahlili masalalariga bag'ishlangan. V.G.Mesheryakov va Zinchenkolar tomonidan qadriyatlar yo'nalganligi turli insoniy qadriyatlarining tanlovida ifodalanadigan shaxs dunyoqarashining jiddiy tarkibiy qismi sifatida qayd qilinadi. O'z navbatida tadqiqot ishimizning asosiy tushunchasi hayotiy qadriyatlarga nisbatan ilgari surilgan ta'rifni keltirib o'tish joiz. Viktor Franklning fikricha, hayotiy qadriyat-bu bizning boshqa insonlar bilan munosabatlarimizga, tanlovlarimizga, va xulq-atvorimizga ta'sir qiladigan xususiyatdir. Keltirilgan ta'riflarga mos ravishda mualliflik ta'rifini ilgari surishga muvofiq bo'ldik. Hayotiy qadriyatlar-bu insonga o'z hayotini qurish, tanlash va mazmun topishga yordam beradigan ichki yo'nalishdir.

Mazkur bob qadriyat muammosini xorij olimlaridan V.Vundt, G.Ollport, L.Kolberg, A.Maslou, M.Rokich, E.Fromm, X.M.Vegas, Ye.A.Arutyun va boshqalar shuningdek, rus psixologlardan V.A.Yadov, V.N.Myasishchev, B.G.Ananov, A.G.Asmolov, V.P.Tugarinov, S.A.Lebedev, L.P.Bueva, V.G.Lomov, L.S.Vigotskiy, F.V.Petrovskiy, D.A.Leontev, M.Rokich va boshqalar ilmiy tadqiq etganlar. Hayotiy qadriyatlar A.A.Kronik, I.V.Kuzmina, I.S.Kon, K.A.Abulxanova-Slavskaya, V.N.Kondraliev, L.N.Kagan, K.Levin, L.Orlova va boshqalar hayotiy mazmuni anglab yetish, hayot haqidagi tasavvurlar borasidagi fikrlariga asoslangan holda

hayotiy qadriyatlar masalasi tadqiq etganlar. Mamlakatimiz olimlaridan N.E.Abdunazarova, A.D.Axmedov, Sh.R.Baratov, A.Begmatov, M.G.Davletshin, N.X.Djuxonov, M.G.Galdieva, M.T.Isakova, M.Jabborov, V.M.Karimova, N.A.Kasimova, M.Mamatov, J.T.Mirzaev, D.Sh.Muxiddinova, Z.N.Ortiqova, S.S.Otamurotov, B.R.Qodirov, N.T.Rasulov, N.S.Safaev, V.O.Saidov, L.T.To‘raqulov, S.M.To‘ychieva, F.S.Tojiboeva, V.A.Tokareva, E.G‘.G‘oziev, S.D.Sharapova, O.T.Shirinov va boshqalarning izlanishlarida qadriyat, qadriyatlar yo‘nalganligi, milliy tarbiya, ma‘naviy-ahloqiy kamolot, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faollik masalalar bilan bog‘liqlik darajasida yoritilgan.

«**Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanganligini eksperimental o‘rganilganligi**» deb nomlangan ikkinchi bobda talabalik davrida hayotiy qadriyatlar va qadriyatlar yo‘nalganligi o‘rtasidagi interkorrelyatsion aloqadorlik, hayotiy mazmuni mo‘ljalga olish talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni belgilovchi mezon ekanligi, talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishiga o‘quv faoliyati motivatsiyasining ta’siri masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Ma‘lumki, talabalik davri shaxs hayotida muhim bosqichlardan hisoblanadi. Ayniqsa, talaba shaxsida hayot haqidagi tasavvur, tushunchalarni reallashishi hamda hayot mazmunini anglab yetishi ulardagi hayotiy qadriyatlarni tarkib topganligi bilan bog‘liq. Shuning bilan birga talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni namoyon bo‘lishiga qadriyatlar yo‘nalganligini ta’sirini aniqlash muhim hisoblanadi.

Talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni shakllanishini o‘rganish maqsadida «Talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni o‘rganish»ga qaratilgan mualliflik so‘rovnoma ishlab chiqilib, sinaluvchilar guruhida o‘tkazildi. Mazkur so‘rovnoma asosida to‘plangan ma‘lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Olingan miqdoriy natijalar 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

Talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni namoyon bo‘lish darajasi, n=50

Hayotiy qadriyatlar mezonlari	Darajalari					
	Yuqori		O‘rta		Past	
	n	%	n	%	n	%
Obro‘	9	18,0	23	46,0	18	36,0
Yuqori moddiy holat	12	24,0	26	52,0	12	24,0
Ma‘naviy qoniqish	9	18,0	25	50,0	16	32,0
Qiziqarli faoliyat	11	22,0	20	40,0	19	38,0
Erkinlik	13	26,0	29	58,0	9	18,0
Baxtli oilaviy hayot	15	30,0	28	56,0	7	14,0
Muvaffaqiyat	7	14,0	22	44,0	21	42,0

1-jadval natijalariga ko‘ra, obro‘ yuqori darajasi 18% (9 nafar), o‘rta daraja 46% (23 nafar), past daraja 36% (18 nafar) ekanligi qayd etildi. Unga ko‘ra, talabalar orasida jamiyat hayotiga faol ravishda moslashishi hamda o‘ziga xos mavqeiga ega bo‘lishi ularda obro‘-e’tiborning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishi ma‘lum bo‘ladi. Tajriba natijalariga ko‘ra, yuqori moddiy holat yuqori darajasi 24% (12 nafar), o‘rta daraja 52% (26 nafar), past daraja 24% (12 nafar) ni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Talabalarimizning fikrlariga ko‘ra, ularning hayotida moddiy boyliklar muhim o‘ringa

ega ekanligi e'tirof etildi. Darhaqiqat talabalar tomonidan tanlagan kasblaridan ko'zlangan asosiy maqsad yuqori maoshga ega bo'lish, moddiy ehtiyojlarini qondirishga nisbatan intilishning kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Talabalar bilan o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra, ma'naviy qoniqishning yuqori darajasi 18% (9 nafar), o'rta daraja 50% (25 nafar), past daraja 32% (16 nafar) tashkil qilinganligi aniqlandi. Natijalardan ko'rinadiki, talabalar uchun moddiy omil bilan ma'naviy qoniqish muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd qilindi. Ta'kidlash joizki, talabalik davrida o'qish yetakchi faoliyat ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, ular bilim olish bilan birga ma'naviy hordiqni ham muhim ekanligini ko'rsatadi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, qiziqarli faoliyat talabalar orasida yuqori darajasi 22% (11 nafar), o'rta daraja 40% (20 nafar), past daraja 38% (19 nafar) ni tashkil qilganligi aniqlandi. Shu o'rinda ta'kidlashg kerakki, talabalik davri o'zining betakrorligi, intiluvchan, har qanday sohaga nisbatan hoxishning ustunligi bilan ajralib turadi. Shunday ekan talabalik davrida o'zi yoqtirgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlariga intilishlari kuchli ekanligini ko'rsatadi. Ma'lumki, talabalik davrida erkinlik yuqori darajasi 26% (13 nafar), o'rta daraja 58% (29 nafar), past daraja 18% (9 nafar) ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Talabalik davrini boshlanishi ularda mustaqil, erkin bo'lishiga nisbatan intilishning kuchli ekanligini ko'rsatadi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, bugungi kun talabasining azaliy orzusi bu baxtli oilaviy hayot kechirishdir. Shu nuqtai nazardan respondentlarning natijalariga e'tibor qaratiladigan bo'lsak, baxtli oilaviy hayot yuqori darajasi 30% (15 nafar), o'rta daraja 56% (28 nafar), past daraja 14% (7 nafar) ni tashkil qilganligi aniqlandi. Ma'lumki, har qanday inson faoliyatida muvaffaqiyat muhim o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazaridan olganda talabalik davrida muvaffaqiyat yuqori darajasi 14% (7 nafar), o'rta daraja 44% (22 nafar), past daraja 42% (21 nafar) ni tashkil qiladi. Ta'kidlash joizki, talabalarning kundalik faoliyatlarida u yoki bu sohalarida yuqori darajada muvaffaqiyatga erishish muhim hisoblanadi. Shu bois, ularda sohalaridagi turli tanlov va tadbirlarda faol ishtirok etishlariga nisbatan ichki motivatsiya yaqqol namoyon bo'ladi

Mazkur ikki hodisa o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish maqsadida G.V.Rezapkinaning "Hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi" metodikasi va S.S.Bubanovanning "Shaxs qadriyatli orientatsiyasini real tuzilishini tashxis qilish" metodikalari tadqiqot uchun tanlab olingan sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilingan. Miqdoriy tahlil natijalarini yaqqol ifodalash maqsadida 2-jadvalda aks ettirildi.

2-jadval natijalariga ko'ra, vaqtni yoqimli o'tkazish, hordiq oila bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Tajriba natijalariga ko'ra, vaqtni yoqimli o'tkazish, hordiq salomatlik, moddiy ta'minot, ijod, karyera, xizmat, shon-sharaf, dam olish kabi hayotiy qadriyatlar bilan uzviy aloqadorlikka ega bo'lmasdan alohida hodisa ekanligi qayd qilindi. Go'zallikni topish va ulardan zavqlanish salomatlik bilan ($r=-0,32$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada qarama-qarshi, shon-sharaf bilan ($r=-0,25$; $p\leq 0,05$) ahamiyatli ontogenetik munosabat mavjudligi aniqlandi. O'z navbatida go'zallikni topish va ulardan zavqlanish moddiy ta'minot, ijod, oila, karyera, xizmat, dam olish kabi hayotiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lmasdan alohida hodisa ekanligi kuzatildi. Olam, tabiat, insonda yangilikni anglash karyera bilan ($r=0,23$; $p\leq 0,05$) ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

Natijalarga ko'ra, olam, tabiat, insonda yangilikni anglash, salomatlik, moddiy ta'minot, ijod, oila, xizmat, shon-sharaf, dam olish bilan o'zaro bog'liqlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi kuzatildi.

2-jadval

Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi va qadriyatlar yo'nalishlari o'rtasidagi aloqadorlik (umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha)

Qadriyatlar yo'nalganligi ko'rsatkichlari	Hayotiy qadriyatlarning tarkibiy qismlari							
	Salomatlik	Moddiy taminot	Ijud	Oila	Karyera	Xizmat	Shon-sharaf	Dam olish
Vaqtini yoqimli o'tkazish, hordiq	-0,08	-0,06	-0,07	0,32**	-0,03	0,04	-0,19	-0,14
Yuqori darajadagi modiy ahvol	-0,06	-0,08	-0,17	-0,03	-0,05	-0,04	-0,08	-0,05
Go'zallikni topish va ulardan zavqlanish	-0,32**	-0,04	-0,19	-0,09	0,01	-0,15	-0,25*	-0,04
Boshqa insonlarga yordam berish	-0,008	-0,008	0,07	0,02	-0,19	-0,01	0,03	0,07
Sevgi	-0,11	-0,001	-0,09	0,05	-0,07	-0,12	-0,11	0,09
Olam, tabiat, insonda yangilikni anglash	0,12	0,07	0,15	0,12	0,23*	0,19	0,13	0,02
Yuqori ijtimoiy daraja va insonlarni boshqarish	-0,07	0,13	-0,08	-0,09	0,09	0,02	0,08	0,24*
Insonlarni tan olish va hurmat qilish, atrofdagilarga ta'sir ko'rsata bilish	-0,03	0,05	0,007	0,11	0,11	-0,10	-0,04	0,20
Jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishish uchun ijtimoiy faollik	0,01	0,10	-0,05	0,11	0,09	0,004	0,03	0,08
Muloqot	-0,18	0,15	-0,12	-0,02	0,14	-0,03	-0,01	0,09

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Yuqori ijtimoiy daraja va insonlarni boshqarish dam olish bilan ($r=0,24$; $p \leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd etildi. O'z navbatida yuqori ijtimoiy daraja va insonlarni boshqarish salomatlik, moddiy ta'minot, ijod, oila, karyera, xizmat, shon-sharaf kabi hayotiy qadriyatlar bilan o'zaro bog'liqlikka ega bo'lmasdan alohida hodisa ekanligi ma'lum bo'ldi.

Empirik ma'lumotlarga ko'ra, yuqori darajadagi moddiy ahvol, boshqa insonlarga yordam berish, sevgi, insonlarni tan olish va hurmat qilish, atrofdagilarga ta'sir ko'rsata bilish, jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishish uchun ijtimoiy faollik, muloqot kabi qadriyatlar yo'nalganligi hayotiy qadriyatlarning tarkibiy qismlari bilan o'zaro bog'liqlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi kuzatildi.

Ma'lumki, talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni shakllanishi qaysidir ma'noda hayotiy mazmuni mo'ljalga olish bilan bog'liqligini o'rganish muhim hisoblanadi. O'z navbatida hayotiy qadriyatlarning faol ravishda rivojlanishi ulardagi hayotiy mazmun, hayotiy maqsad, hayotiy tasavvur kabi omillarning taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan olganda, talabalik davrida hayotiy mazmuni

mo'ljalga olish va hayotiy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tekshirish maqsadida G.V.Rezapkinaning «Hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi» metodikasi va D.A.Leontevning «Shaxs hayot mazmunini mo'ljalga olish» metodikalaridan foydalangan holda tadqiqot ishlari amalga oshirildi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari 3-jadvalda aks ettirildi.

3-jadval

Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar va hayotiy mazmuni mo'ljalga olish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik xususiyatlari

Hayotiy qadriyatlarning tarkibiy qismlari	Hayotiy maqsad	Jarayon	Natija	“Men”ni nazorat qilish	Hayotni nazorat qilish
Salomatlik	0,57**	0,01	0,28*	0,23*	0,37**
Moddiy ta'minot	0,50**	0,40**	0,48**	0,40**	0,39**
Ijod	0,25*	0,02	0,16	0,26*	0,23*
Oila	0,74**	0,60**	0,76**	0,41**	0,28*
Karyera	0,31**	0,11	0,25*	0,40**	0,47**
Xizmat	0,29*	0,16	0,29**	0,25*	0,26*
Shon-sharaf	0,38**	0,004	-0,24*	-0,33*	0,08
Dam olish	0,50**	0,16	0,02	0,25*	0,05

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

3-jadval natijalariga ko'ra, salomatlik hayotiy maqsad bilan ($r=0,57$; $p \leq 0,01$) yuqori darajada natija bilan ($r=0,28$; $p \leq 0,05$), “Men”ni nazorat qilish bilan ($r=0,23$; $p \leq 0,05$), hayotni nazorat qilish bilan ($r=0,37$; $p \leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi qayd qilindi. O'z navbatida salomatlik jarayon bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, moddiy ta'minot hayotiy maqsad bilan ($r=0,50$; $p \leq 0,01$), jarayon bilan ($r=0,40$; $p \leq 0,01$), natija bilan ($r=0,48$; $p \leq 0,01$), “Men”ni nazorat qilish bilan ($r=0,40$; $p \leq 0,01$), hayotni nazorat qilish bilan ($r=0,39$; $p \leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli ekanligi ma'lum bo'ldi.

Empirik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, ijod hayotiy maqsad bilan ($r=0,25$; $p \leq 0,05$), “Men”ni nazorat qilish bilan ($r=0,25$; $p \leq 0,05$), hayotni nazorat qilish bilan ($r=0,23$; $p \leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi qayd qilindi. Shuning bilan birga jarayon, natija bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, oila hayotiy maqsad bilan ($r=0,74$; $p \leq 0,01$), jarayon bilan ($r=0,60$; $p \leq 0,01$), natija bilan ($r=0,76$; $p \leq 0,01$), “Men”ni nazorat qilish bilan ($r=0,41$; $p \leq 0,01$), hayotni nazorat qilish bilan ($r=0,28$; $p \leq 0,05$) yuqori darajada o'zaro ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi kuzatildi.

Metodika natijalariga ko'ra, karyera hayotiy maqsad bilan ($r=0,31$; $p\leq 0,01$), "Men"ni nazorat qilish bilan ($r=0,40$; $p\leq 0,01$), hayotni nazorat qilish bilan ($r=0,47$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada hamda jarayon bilan ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi. O'z navbatida karyera natija bilan o'zaro bog'liq bo'lmasdan alohida hodisa ekanligi kuzatildi.

Tajriba natijalariga ko'ra, xizmat hayotiy maqsad bilan ($r=0,29$; $p\leq 0,05$), natija bilan ($r=0,29$; $p\leq 0,01$), "Men"ni nazorat qilish bilan ($r=0,25$; $p\leq 0,05$), hayotni nazorat qilish bilan ($r=0,26$; $p\leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Shuning bilan birga xizmat jarayon bilan o'zaro ahamiyatli bog'liqlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi qayd etildi. Shon-sharaf hayotiy maqsad bilan ($r=0,38$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada, natija bilan ($r=-0,24$; $p\leq 0,05$), "Men"ni nazorat qilish bilan ($r=-0,33$; $p\leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli qarama-qarshi aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, shon-sharaf hayotni nazorat qilish, jarayon bilan o'zaro ahamiyatli bog'liqlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi ma'lum bo'ldi. Tajriba natijalariga ko'ra, dam olish hayotiy maqsad bilan ($r=0,50$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada, "Men"ni nazorat qilish bilan ($r=0,25$; $p\leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Shuning bilan birga dam olish hayotni nazorat qilish, jarayon, natija bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi ma'lum bo'ldi.

Keltirilgan natijalarga ko'ra, talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni shakllanishi ulardagi hayotiy mazmuni mo'ljalgacha olish komponentlari bilan o'zaro aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi.

Tadqiqot ishi doirasida talabalik davrida hayotiy qadriyatlar va o'quv motivatsiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tekshirishga muvaffaq bo'lindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad talabalik davrida hayotiy qadriyatlar mezonlariga o'quv faoliyati motivatsiyasining samarali ta'sirini o'rganishdan iborat. Tadqiqot ishimiz doirasida tanlab olingan talabalar guruhi bilan G.V. Rezapkinaning "Hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi" metodikasi va A.A.Rean va V.A.Yakunin tomonidan ishlab chiqilgan hamda N.S.Badmaevalarning "Talabalarning o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish" metodikalari o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalarini yaqqol ifodalash maqsadida jadvalda aks ettirildi.

4-jadval natijalariga ko'ra, salomatlik o'zini o'zi ijodiy namoyon qilish bilan ($r=0,18$; $p\leq 0,01$) o'zaro yuqori darajada, bilishga va o'qishga oid bilan ($r=0,14$; $p\leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi. O'z navbatida salomatlik kommunikativ, o'zini olib qochish, obro'-e'tibor, kasbiy, ijtimoiy kabi o'quv motivatsiyasi bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan alohida hodisa ekanligi aniqlandi. Moddiy ta'minot bilishga va o'qishga oid bilan ($r=0,15$; $p\leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuning bilan birga moddiy ta'minot kommunikativ, o'zini olib qochish, obro'-e'tibor, kasbiy, o'z-o'zini ijodiy namoyon qilish, ijtimoiy kabi o'quv motivatsiyasi bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi qayd qilindi. Dam olish o'z-o'zini ijodiy namoyon qilish bilan ($r=0,14$; $p\leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli bog'liqlikka ega emasligi aniqlandi. O'z navbatida kommunikativ, o'zini olib qochish, obro'-e'tibor, kasbiy, bilishga va o'qishga oid, ijtimoiy kabi o'quv motivatsiyalar bilan o'zaro aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi.

3-kurs talabalarida hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi va o'quv motivatsiyasi o'rtasidagi interkorrelyatsion bog'liqlik


Hayotiy qadriyatlarning tarkibiy qismlari	O'quv motivatsion komponentlari						
	Kommunikativ	O' zini olib qochish	Obro' -e' tibor	Kasbiy	O' z-o' zini ijodiy namoyon qilish	Bilishga va o' qishga oid	Ijtimoiy
Salomatlik	0,04	0,00	0,11	0,11	0,18**	0,14*	0,09
Moddiy ta'minot	-0,03	0,03	0,09	0,09	0,04	0,15*	-0,02
Ijodkorlik	-0,03	-0,01	-0,00	0,10	0,09	0,06	-0,02
Oila	0,06	-0,02	0,03	0,09	0,11	0,08	0,09
Karyera	-0,02	-0,14*	0,00	-0,01	0,02	-0,07	-0,03
Xizmat	0,12	-0,01	0,13	-0,03	0,10	-0,01	0,09
Shon-sharaf	-0,04	-0,11	-0,08	-0,02	0,08	-0,08	-0,12
Dam olish	0,07	-0,03	0,02	-0,01	0,14*	0,07	0,04

